

MILLIY IQTISODIYOTDA KREDIT TASHKILOTLARINING ROLI VA IQTISODIY TARAQQIYOTNING MUHIM OMILLARI SIFATIDA

i.f.n., professor Komolov Odiljon Sayfidinovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Xalqaro moliya" kafedrası professori

ORCID: 0000-0002-0289-8673

odiljonuzb@gmail.com

THE ROLE OF CREDIT INSTITUTIONS IN THE NATIONAL ECONOMY AND AS IMPORTANT FACTORS OF ECONOMIC DEVELOPMENT

PhD, professor Komolov Odiljon Sayfidinovich

Tashkent State University of Economics

Professor of the Department of international finance

ORCID: 0000-0002-0289-8673

odiljonuzb@gmail.com

JELClassification: F43, G24

Annotatsiya: Ushbu maqolada kredit tashkilotlarining milliy iqtisodiyotdagi roli va ahamiyati tahlil qilinadi. Kredit tashkilotlari iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida xo'jalik sub'ektlarini moliyalashtirish, investitsiya jarayonlarini rag'batlantirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda asosiy o'rin tutadi. Maqolada barcha kredit tashkilotlarining jumladan, tijorat banklari, mikromoliya tashkilotlari, lombardlar, ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari, chet el banklari vakolatxonalarini iqtisodiyotdagi ishtiroki tahlil qilingan. Shuningdek, kredit tashkilotlarining samaradorligini oshirish yo'llari va ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri bo'yicha amaliy takliflar berilgan.

Abstract: The article analyzes the role and importance of credit institutions in the country's economy. Credit institutions, being one of the important factors in economic development, play a key role in financing business entities, stimulating investment processes, and ensuring financial stability. The article examines the role of all credit institutions, including commercial banks,

microfinance organizations, pawnshops, and mortgage refinancing. The participation of organizations and representative offices of foreign banks in the economy is analyzed. Practical proposals were also made to improve the efficiency of credit institutions and their impact on economic development.

Kalit so'zlar: Kredit tashkilotlari, moliyaviy institutlar, tijorat banklari, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar, mikromoliya tashkilotlari, ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari, chet el banklari vakolatxonalarini, moliyalashtirish manbalari, kredit tizimi, qarz mablag'lari, raqamli bank xizmatlari, kreditlash mexanizmlari.

Key words: Credit institutions, financial institutions, commercial banks, credit unions, microcredit organizations, pawnshops, microfinance organizations, mortgage refinancing organizations, representative offices of foreign banks, sources of financing, credit system, borrowed funds, digital banking services, lending mechanisms.

Kirish.

Zamonaviy iqtisodiyotda kredit tashkilotlari muhim rol o'ynaydi, chunki ular moliyaviy resurslarni taqsimlash, tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vazifalarini bajaradi. Kredit tashkilotlari nafaqat bank moliya tizimining asosiy ishtirokchilari sifatida, balki iqtisodiyotni moliyalashtirishning asosiy vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Xususan, kredit tashkilotlari orqali iqtisodiyotning turli tarmoqlariga sarmoya yo'naltirish, korxonalar va aholi uchun kredit resurslarini taqdim etish orqali iqtisodiy o'sishga katta hissa qo'shiladi. Shu bilan birga, kredit tashkilotlari tadbirkorlik sub'ektlari va jismoniy shaxslarga moliyaviy xizmatlar ko'rsatish orqali biznes muhitini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv sharoitida kredit tashkilotlarining roli yanada oshib, ularning samarali faoliyati mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi kredit tashkilotlari xizmatlarining raqamlashtirilishi va kreditlash jarayonlarining samaradorligini oshirishga olib kelmoqda.

Ushbu maqolada kredit tashkilotlarining milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati, ularning faoliyat yo'nalishlari va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri atroflicha yoritiladi.[1,2,3,4]

Material va metod.

Kredit tashkilotlarining roli bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar moliyaviy institutlarning iqtisodiyotdagi ahamiyatini keng qamrovda tahlil qiladi. Turli mualliflar tomonidan kredit tashkilotlarining iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri, moliya bozoridagi o'rni va ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlar yoritilgan. Xususan, A.A.Omonov, T.M.Qoralievlar 2019 yilda chop etgan "Pul, kredit va banklar" darsligida banklar va boshqa kredit tashkilotlarining

iqtisodiyotdagi o'rni, xususan, ularning moliyaviy vositachilik faoliyati va to'lov tizimlaridagi ahamiyati haqida so'z boradi. Mualliflar banklarning jamg'arma va investitsiya jarayonlaridagi rolini ham tahlil qiladilar.[5]

N.M.Nazarova o'z tadqiqotida "O'zbekiston respublikasida nobank kredit tashkilotlarining huquqiy asoslari va ularning amaldagi faoliyati" nobank kredit tashkilotlari haqida tushunchalar, ularning huquqiy asoslari hamda respublikamizda faoliyat yuritayotgan mikrokredit tashkilotlari va lombardlarning ma'lumotlarini tahlil qilgan.[6]

T.M. Karaliev R.B. Qurbonovlar "Mikrokredit tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirish masalalari" mazkur maqolasida mikrokredit tashkilotlarining operatsiyalari, mikrokredit tashkilotlarining soni, tarkibi va ularning xududlararo joylashuvi hamda ularning faoliyatini takomillashtirishga tegshili tavsiyalarni ochib berishgan.[7]

E.F.Jukov va boshqalar "Banklar va nobank kredit tashkilotlari va ulardagi operatsiyalar" ushbu izlanishida bank va nobank sektori sohasida olib borilgan faoliyatining ilmiy asoslari, ularning bugungi kunda tutgan o'rni va ahamiyati, tashkiliy tartibga solishni takomillashtirish tahlil etilgan. Mualliflar banklar va nobank kredit tashkilotlari va ulardagi operatsiyalari hamda kreditlash jarayonining tavakkalchiligini kamaytirish va samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar bergan.[8]

Bank va nobank sektori sohasida olib borilgan zamonaviy tadqiqotlarda taniqli rus olimlari A. V. Vernikov, D. V. Tulin va boshqa mutaxassislarning ilmiy ishlari alohida e'tiborga loyiqdir. Ularning nashrlarida Rossiyada xorijiy banklarning turli tashkiliy-huquqiy shakllarda mavjudligi masalalari atroflicha tahlil qilingan. Shu bilan birga, xorijiy kapital ishtirokidagi banklarning

mahalliy bank tizimi rivojlanishiga ta'siri masalasi hanuzgacha etarlicha chuqur o'rganilmagan. Bu esa mazkur yo'nalishda yanada batafsil ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruratini yuzaga keltiradi.[9,10,11]

Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC, 2024) hisobotlari Jahon banki tarkibidagi ushbu tashkilot tomonidan kredit tashkilotlarining investitsiya muhitiga ta'siri, ularning rivojlanayotgan davlatlardagi samaradorligi va kreditlash mexanizmlari haqida ma'lumotlar taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2024) statistik ma'lumotlari Markaziy bank tomonidan nashr qilinadigan yillik hisobotlarda mamlakatdagi kredit tashkilotlarining ko'rsatkichlari, aktivlari, foiz stavkalari va moliyaviy barqarorlikka ta'siri tahlil qilingan.[13]

Finlit.uz moliyaviy savodxonlik bo'yicha internet veb sayt ushbu kredit tashkilotlarining iqtisodiyotdagi o'rni va vazifalari yoritilgan. Moliyaviy savodxonlik bo'yicha internet tarmog'ida banklarni iqtisodiyotning "qon tomir tizimi" sifatida ta'riflab, mikrokredit tashkilotlar hamda lombardlarga ham ta'riflar berilib, ularning aholi va biznesning jamg'armalarini taqsimlash orqali iqtisodiyotni zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlashini ta'kidlaydilar.[14]

Yuqoridagi adabiyotlar va rasmiy internet tarmoqlarda xam kredit tashkilotlarining iqtisodiyotdagi roli va ahamiyatini chuqurroq o'rganish, ularning faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishda muhim manba hisoblanadi.

Natijalar.

Kredit tashkilotlari (tijorat banklari, mikromoliya tashkilotlari, kredit uyushmalari va boshqa moliya institutlari) iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, moliya bozorining samarali ishlashi va aholining

moliya xizmatlariga kirishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Avvalo, faoliyatning ko'plab yo'nalishlarida, jumladan, bank va nobank sohasida ham unumdorlik darajasini oshirish zarur bo'ladi. Kredit tashkilotlarini yanada ilg'or xizmat ko'rsatish modelini taklif qilishi, mijozlarga yanada e'tiborli bo'lishi, ularning so'rovlariga moslashuvchan javob berishga doimo tayyor bo'lishi va texnologik jihatdan ilg'or mahsulotlarni taklif qilishi kerak bo'ladi. [8]

Kredit tashkilotlari (banklar va boshqa nobanklar) iqtisodiyotni modernizatsiyalashda muhim rol o'ynaydi. Ularning asosiy rollari quyidagi holatlarda ko'rib o'tamiz.

Mablag'larni jamg'arish va taqsimlash yuzasidan kredit tashkilotlari aholi va korxonalarining mablag'larini jamg'aradi (depozitlar, hisobvaraqlar orqali) va ularni iqtisodiyotning turli sohalariga investitsiya qiladi yoki kredit shaklida taqsimlaydi. Bu jarayon resurslarning samarali taqsimlanishiga yordam beradi.

Kredit berish bo'yicha kredit tashkilotlari jismoniy va yuridik shaxslarga turli maqsadlar (masalan, ishlab chiqarishni kengaytirish, uy-joy qurish, ta'lim olish) uchun kreditlar beradi. Bu iqtisodiy faollikni rag'batlantirish va ish o'rinlarini yaratish imkoniyatini beradi.

Investitsiyalarni moliyalashtirishda kredit tashkilotlari korxonalariga investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni taqdim etadi. Bu iqtisodiyotning o'sishiga va yangi texnologiyalarni joriy etishga yordam beradi.

Pul-kredit siyosatini amalga oshirishda Markaziy bank pul-kredit siyosatini amalga oshirishda kredit tashkilotlaridan foydalanadi. Masalan, foiz stavkalarini o'zgartirish, qo'shimcha likvidlikni taqdim etish yoki pul massasini nazorat qilish orqali inflyatsiya va iqtisodiy o'sishni boshqarish mumkin.

To'lov tizimlarini ta'minlash bo'yicha kredit tashkilotlari to'lov tizimlarini (masalan, bank kartalari, elektron to'lovlar, SWIFT tizimi) taqdim etadi, bu esa to'lovlarning tez va xavfsiz amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Riskni boshqarish nuqtai nazardan, kredit tashkilotlari mijozlarga turli xil moliya risklarini boshqarish imkoniyatini beradi. Masalan, sug'urta mahsulotlari, valyuta operatsiyalari (hedging) va boshqa xizmatlar orqali mijozlar molaviy noaniqliklardan himoyalaniishi mumkin.

Aholining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha kredit tashkilotlaridan, ayniqsa mikromoliya institutlari, chekka hududlarda yashovchi aholiga kambag'allikni qisqartirish borasida moliya xizmatlarini etkazib berish orqali ularning hayot sharoitini yaxshilashga yordam beradi.

Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda kredit tashkilotlari iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ular moliyaviy inqirozlar paytida likvidlikni taqdim etish, mijozlarning ishonchini saqlash va bozorlarning ishlashini qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy barqarorlikni saqlashga yordam beradi.

Xalqaro savdo va investitsiyalarni qo'llab-quvvatlashda kredit tashkilotlari xalqaro savdo (import-eksport) va xorijiy investitsiyalarni moliyalashtirish orqali iqtisodiyotning global integratsiyasiga hissa qo'shadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga hissa bo'yicha kredit tashkilotlari turli ijtimoiy loyihalarni (masalan, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, qishloq joylarda mayda kasanachilikni rivojlantirish) moliyalashtirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadi. [8]

Demak, kredit tashkilotlarining milliy iqtisodiyotda muhim roli bunda tizimli va barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ko'tarishda ko'p tomonli tashkiliy funktsiyalar bajarishda jiddiy muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rib o'tdik. Iqtisodiyotda pul muomalasi, kreditlash va hisob-kitoblar jarayonlarini boshqarish uchun kredit tashkilotlarining moliyaviy mablag'lari holati va harakati to'g'risida tezkor va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lish zarur. Mamlakatimizdagi iqtisodiy muhitni, hududlardagi vaziyatni va iqtisodiy faoliyatning turli yo'nalishlarini, davlat soliq va bojxona siyosatini, narx-navo sharoitini, moliya bozorlaridagi talab va taklifni xolisona aks ettiruvchi ko'p qirrali, ishonchli, tezkor qabul qilinadigan va qayta ishlangan ma'lumotlar, davlat darajasida boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ham, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, shu jumladan kredit tashkilotlari sektorida muvaffaqiyatli tijorat faoliyati zarur bo'ladi.

Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda xorijiy tajribalardan kelib chiqib, iqtisodiyotimiz amaliyotiga kredit tashkilotlarni turli shakllari joriy etilmoqda.

KREDIT TASHKILOTLARI

Tijorat banklari	Mikromoliya tashkilotlari	Lombardlar	Ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari	Chet el banklari vakolatxonalari
-------------------------	----------------------------------	-------------------	---	---

1-rasm. O'zbekiston qonunchiligida qayd etilgan kredit tashkilotlari¹

¹ cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

Har bir davlatda kredit tashkilotlarini maqsadi moliyaviy tizimni barqarorlashtirish bilan bir qatorda, valyuta va kapital barqarorligini ham ta'minlash hisoblanadi.

Iqtisodiyotda kredit tashkilotlari biznes operatsiyalarining haqiqiy holatini, turli xil

risklarni boshqarish shartlarini, kapitalning etariligi va daromad olish qobiliyatini tushunish uchun halqaro moliyaviy institutlar bilan biznes hamkorlarigi o'rtasida so'rovlar o'tkazadi.

1-jadval

Kredit tashkilotlari va ularning tarkibiy bo'linmalari soni²

	01.01.20	01.01.21	01.01.22	01.01.23	01.01.24	01.01.25
1. Kredit tashkilotlari, jami*	147	160	177	199	204	229
<i>shu jumladan:</i>						
Tijorat banklari, shundan:	30	32	33	32	35	36
Davlat ulushi mavjud banklar	13	13	12	12	10	9
Boshqa banklar	17	19	21	20	25	27
Nobank kredit tashkilotlari, shundan:	117	128	144	167	169	193
Mikromoliya tashkilotlari	56	63	70	85	84	100
Lombardlar	61	64	73	81	84	92
Ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari	0	1	1	1	1	1
2. Tijorat banklari filiallari, jami	850	861	860	832	696	288
3. Bank xizmatlari markazlari (xizmat ofislari va mini-banklar)	1 050	1 222	1 244	1 543	1 816	1 720
4. 24/7 shoxobchalari	902	1 452	2 287	2 974	3 723	4 447

* Tijorat banklarining va nobank kredit tashkilotlarining xorijiy davlatlarda filiallari mavjud emas.

Kredit tashkilotlari sonining ortishini ko'radigan bo'lsak 2020 yilda jami 147 ta kredit tashkiloti bo'lsa, 2025 yilga kelib bu raqam 229 taga etgan. O'sish sur'ati paydo bo'lib, ayniqsa 2023 yildan keyin tezlashgan.

Jumladan, tijorat banklari soni 2020 yilda 30 ta bo'lgan va 2024 yilda 36 taga etgan. Xususan, 2020 yildan davlat tijorat banklari soni kamaygan, yani 2020 yilda 13 ta bo'lsa, 2024 yilga kelib 9 taga tushgan, bu esa davlat banklarining xususiy sektorga aylanib

² cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik xisobotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

borishini ko'rsatmoqda. Boshqa turli shakldagi tijorat banklari soni esa 2020 yildagi 17 tadan 2025 yilga 27 taga ko'payganini kuzatishimiz mumkin.

Nobank kredit tashkiloti soni 2020 yilda 117 ta bo'lgan bo'lsa va 2024 yilda 193 taga etgan. Xususan, mikromoliya tashkilotlari soni bugunga kelib tez ko'paygan. 2020 yilda 56 ta bo'lsa, 2025 yilga kelib qariyb teng barobarga oshib, 100 taga etgan. Lombardlar soni ham oshgan: 2020 yilda 61 ta bo'lgan bo'lsa, 2025 yilga kelib 92 taga etgan. Ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari soni esa qolgan 2021 yildan joriy etilib 1 tani tashkil etgan bo'lsa 2025 yilga kelib ham 1 tani tashkil etmoqda. Chunki bu sinov tarzda faoliyat yuritmoqda.

Tijorat banklari filiallari soni 2020 yilda 850 ta bo'lsa, 2025 yilga kelib afsuski 288 taga

kamaygan. Albatta bu achinarli holat. Bundan ko'rinadiki filiallarning yopilishi bilan bo'g'liq. Shu o'rinda aytish joizki, raqamli bank xizmatlari yoki tijorat banklari tomonidan olib borilgan filialsiz banklar loyihasi doirasida filiallar kamayganin ko'rish mumkin. Bank xizmatlari markazlari yoki 24/7 shoxobchalarini yillar davomida o'sish tendensiyasini ko'rish mumkin. [13]

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki mamlakatdagi tijorat banklari va kredit tashkilotlari faoliyati haqida muntazam ravishda hisobotlar e'lon qiladi. Ushbu hisobotlarda banklarning aktivlari, majburiyatlari, kapitali va boshqa moliyaviy ko'rsatkichlari haqida ma'lumotlar berilishi albatta mijozlari soni ham keltiriladi.

2-jadval

Kredit tashkilotlarida mijozlar soni³


Tashkilot turi	Mijozlar soni	O'rtacha kredit summasi	Asosiy afzalliklar
Tijorat banklari	1 million+	50 000–1 000 000 \$	Katta kreditlar, uzoq muddat
Mikromoliya tashkiloti	500 000+	100–5 000 \$	Tezkor jarayon (fast approval), kam hujjat
Lombardlar	200 000+	50–2 000 \$	Garov asosida tez pul

Ushbu jadvalda turli xil moliya tashkilotlari (tijorat banklari, mikromoliya tashkilotlari va lombardlar) bo'yicha ma'lumotlar taqdim etilgan. Jadvalni quyidagi jihatlardan tahlil qilish mumkin. Tijorat banklari kattaroq kreditlar bilan shug'ullanadi va mijozlar soni 1 milliondan ortiq. Mikromoliya tashkilotlari bu tashkilotlar kichikroq kreditlar bilan shug'ullanadi va mijozlar soni 500 000+ ortiqdir. Lombardlar esa ancha kichikroq kreditlar bilan shug'ullanadi va mijozlar soni 200 000+ tani tashkil etadi. Tijorat banklari katta kreditlar va

uzoq muddatli shartnomalar bilan ajralib turadi. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tezkor approvall, kam hujjat talablari, garov asosida kredit berish va tez pul olish imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tijorat banklari kattaroq kreditlar va ko'proq mijozlar bilan shug'ullanadi, mikromoliya tashkilotlari va lombardlar esa kichikroq kreditlar va tezkor xizmatlar bilan mijozlarni jalb qiladi. Har bir tashkilot o'zining afzalliklariga ega va turli xil mijozlar ehtiyojlarini qondiradi.

³ cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik xisobotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

Iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan davlatlardagi kredit tashkilotlari moliyaviy barqarorlik, kapitalning samarali taqsimlanishi, iste'mol va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda innovatsion echimlarni joriy etish orqali iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi. Ular mamlakat ichida va xalqaro miqyosda investitsiyalar oqimini ta'minlab, iqtisodiy taraqqiyotning asosiy tayanchlaridan biri bo'lib qoladi.



2-rasm. Rivojlangan mamlakatlarda kredit tashkilotlarini shakllanishi⁴

Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlardagi kredit tashkilotlarining iqtisodiyotdagi roli quyidagi asosiy jihatlarda namoyon bo'ladi:

Moliyaviy vositachilik nuqtai nazaridan, kredit tashkilotlari aholi va korxonalar o'rtasida moliyaviy vositachilik rolini o'ynaydi. Ular jamg'armalarni

⁴ Turli xorijiy adabiyotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

investitsiyalarga yo'naltirib, iqtisodiyotning samarali ishlashini ta'minlaydi.

Kapitalni samarali taqsimlash yuzasidan rivojlangan davlatlardagi kredit tashkilotlari kapitalni talab yuqori bo'lgan tarmoqlarga yo'naltirib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Masalan, yuqori texnologiyali sanoat, yashil energiya yoki infratuzilma loyihalariga kreditlar beriladi.

Iste'mol va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda kredit tashkilotlari jismoniy shaxslar va bizneslar uchun kreditlar berish orqali iste'mol va tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashadi. Masalan, ipoteka kreditlari uy-joy bozorini rivojlantirsa, biznes kreditlari yangi korxonalar ochilishiga imkon yaratadi.

Pul-kredit siyosati va iqtisodiy barqarorlik bo'yicha Markaziy banklar tijorat kredit tashkilotlari orqali pul-kredit siyosatini yuritadi. Foiz stavkalarini belgilash, likvidlikni boshqarish va inflyatsiyani nazorat qilish kredit tizimi orqali amalga oshiriladi.

Xalqaro moliyaviy barqarorlik va investitsiyalarni iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning bank tizimi global investitsiyalarni boshqaradi, transchegaraviy kreditlash va xalqaro moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiradi. Masalan, London va Nyu-Yorkdagi yirik banklar global iqtisodiy faoliyat markazlaridan biri hisoblanadi.

Innovatsiyalar va raqamli moliyaviy xizmatlarda zamonaviy rivojlangan mamlakatlarda kredit tashkilotlari fintech echimlarini joriy qilib, raqamli to'lov tizimlari, mobil banking va blockchain texnologiyalarini keng qo'llamoqda. Bu esa moliyaviy xizmatlarning tezkor va arzon bo'lishiga yordam beradi.

Bank kredit tashkilotlari kengroq va an'anaviy moliyaviy xizmatlarni taqdim etsa, nobank kredit tashkilotlari muayyan sohalarga

ixtisoslashgan. Nobank kredit tashkilotlari kichik biznes, xususiy shaxslar va sug'urta xizmatlariga qaratilgan bo'lib, tijorat banklariga nisbatan moslashuvchanroq xizmatlar taklif qiladi. Iqtisodiy o'sish va moliyaviy xizmatlarning diversifikatsiya qilinishi uchun har ikkala guruh ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa.

Xulosa o'rnida qayd etish joizki, yuqoridagi natija va tahlillardan ko'rinadiki, iqtisodiyotda jamg'armalarni investitsiyalarga yo'naltiruvchi bu bank va nobank tashkilotlarini roli katta ekanligini ko'rib o'tdik. Milliy iqtisodiyotda kredit tashkilotlari muhim o'rin tutib, iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ular moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, investitsiyalarni rag'batlantirish va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi. Kredit tashkilotlari aholi va korxonalarining kapitalga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda pul-kredit tizimini barqarorlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, innovatsion loyihalar va infrastrukturaviy rivojlanishni moliyalashtirish orqali raqobatbardosh iqtisodiy muhit shakllanishiga yordam beradi. Mamlakatda samarali kredit tizimining mavjudligi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, iste'mol talabini oshirish va umuman, barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababli, kredit tashkilotlarining faoliyatini yanada takomillashtirish va moliyaviy tizimning mustahkamligini oshirish milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun dolzarb masalalardan biri qoladi, albatta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 11 noyabrdagi O'RQ-582-son "Markaziy bank to'g'risida"gi qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 20 apreldagi O'RQ-765-son "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2006 yil 20 sentyabrdagi O'RQ-53-son "Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida"gi qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 iyuldagi PQ-4400-son "Mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori.
5. Omonov A.A., Qoraliyev T.M. Pul va banklar: Darslik / - T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. - 448 b.
6. Nazarova N.M. "O'zbekiston respublikasida nobank kredit tashkilotlarining huquqiy asoslari va ularning amaldagi faoliyati" Iqtisodiyot va ta'lim / 2022-yil 3-son 71-78 betlar.
7. Karaliev T.M. Qurbonov R.B. Mikrokredit tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirish masalalari "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. №1, fevral, 2017 yil.
8. Жуков Е.Ф. и др. Банки и небанковские кредитные организации и их операции. ЮНИТИ-ДАНА. 2017 г. – стр. 559
9. Верников А. В. Доля иностранного капитала в банковском секторе: вопросы методологии// Денги и кредит. 2006. № 6.
10. Верников А. В. Осенка масштабов присутствия иностранных банков// Денги и кредит. 2002. № 1.
11. Тулин Д. В. Филиалы иностранных банков в России: мифы и реальность// Денги и кредит. 2005. № 5.
12. World Bank Group. Fiscal Aspects of Financial Sector Development: Policy Report. - Washington, DC: World Bank Publications, 2023. - 124 p.
13. www.cbu.uz. - Markaziy bank rasmiy sayti.
14. www.finlit.uz - Markaziy bankning "Moliyaviy savodxonlik" loyihasi
15. www.regulation.gov.uz. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali